

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘l yozma huquqida
UO‘K: 657.6-051:330.146**

ATAMURODOV SAIDMUROD YAXYOYEVICH

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI TAHLILI
VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Iqtisodiyot fanlari
doktori, professor Maxmudov A.N.**

Toshkent - 2025-yil

MUNDARIJA

Kirish	3
---------------------	----------

I-BOB. PUL OQIMLARI TAHLILI VA AUDITINING NAZARIY VA

USLUBIY ASOSLARI

1.1.Pul oqimlarining iqtisodiy mohiyati, ularni tasniflash va baholashning zarurati.....	11
1.2.Pul oqimlari tahlilining tashkiliy-uslubiy jihatlari	25
1.3.Pul oqimlari auditi bo'yicha xorij tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	34
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	48

II-BOB. PUL OQIMLARI TAHLILINING AXBOROT TA'MINOTI VA

UNI TAKOMILLASHTIRISH

2.1.Operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari tahlilining xususiyatlari..	50
2.2.Investitsion va moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlari tahlilini samarali yuritish yo'llari...	62
2.3.Pul oqimlarini samarali boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish va 2028-yilgacha bo'lgan prognozini tuzish..	72
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	83

III-BOB. PUL OQIMLARI AUDITINI O'TKAZISHNI

TAKOMILLASHTIRISH

3.1.Xalqaro standartlar asosida pul oqimlari auditini rejalashtirish.....	84
3.2.Audit jarayonida pul oqimlari bo'yicha tuzilgan hisobot axborotlaridan foydalanish.....	98
3.3.Pul oqimlari auditida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash istiqbollari.....	105
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	117

Xulosalar.....	118
-----------------------	------------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	120
--	------------

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida to'qimachilik sanoati hajmi 2024-yilda 1976,84 milliard AQSH dollariga baholangan bo'lib, prognozlarga ko'ra, bozor hajmi 2034-yilgacha 4 trillion dollardan oshishi kutilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotida 2024-yil holatiga 34,9 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb etilib, 242 ta yirik va o'rta loyiha ishga tushirilgan. Ayniqsa, to'qimachilik sanoati eksport salohiyati bilan ajralib turib, 241,9 million dollarlik mahsulot xorijga eksport qilingan va u umumiy eksportning 34,6 foizini tashkil etadi. Tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 8,8 foizga yetib, iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylangan. Prezident farmoniga¹ muvofiq, 100 million dollarlik yangi investitsiya mablag'lari ajratilishi va 2027-yilgacha ip-kalavani to'liq qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bunday sharoitda korxonalarning likvidligi va to'lov qobiliyatini aniqlik bilan baholash, investitsion muhitni yaxshilash, risklarni kamaytirish va biznes shaffofligini ta'minlash orqali xalqaro moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish zarurati yuzaga chiqmoqda.

Jahon amaliyotida pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish, tahlil va audit qilish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Raqamli texnologiyalar va analitik dasturiy ta'minotlardan foydalanish samaradorligini oshirish, pul oqimlari prognozlash modellarini takomillashtirish, risklarni baholashning ilg'or metodologiyalarini joriy qilish, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiqlik darajasini ta'minlash va auditorlik jarayonlarida sun'iy intellekt hamda blokcheyn texnologiyalarini integratsiyalash orqali shaffoflik va ishonchlikni oshirish masalalari xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlari tahlili va auditini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda turli shakldagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, pul mablag'larining yetishmovchiligini oldini olish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.05.2024-yildagi PF-71-son

oshirilmoqda. Yangicha shakl va mohiyatga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkil etilishi, albatta, hisob, tahlil va audit tizimini mazmunan boyitishni talab qiladi. Bu esa, tahlil va auditni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Pul mablag'larining harakatini tartibga solish, ularning nazoratini samarali tashkil etish, yangi manbalarni izlab topish va ularning holatini muntazam tahlil qilish, shuningdek, pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobot tahlili va auditini xalqaro tajribalar asosida o'tkazishni ta'minlash borasida yangi yondashuvlarni tatbiq etishning obyektiv zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3946-son "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I."Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'lari harakati bilan bog'liq buxgalteriya hisobi va hisoboti bazisli ma'lumotlari asosida pul oqimlari tahlili va auditini takomillashtirishning konseptual asoslari va ularning amaliy jihatlarini o'rganish yuzasidan ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlardan Bernshteyn L.A., Breg S., Brigham Y., Houston J., Subramanyam K.R., Van Horne J.C., Wachowicz J.M., Mc. Kenzie V., Knight R.,